

BO‘LAJAK OLIGOFRENOPEDAGOGLARDA INKLÝUZIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INSTITUSIONAL HAMKORLIK

Arslanova Madinaxon Mansurovna
Qo‘qon Universiteti “Ta’lim” kafedrası
p.f.f.d. (PhD), dotsent

Yurtimizda “Inson qadri” uchun degan ezgu g‘oya davlat ijtimoiy siyosatining mazmun-mohiyatini yaqqol ifoda etmoqda. Keyingi yillarda nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatning barcha sohalari va jabhalaridagi huquq-manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va kafolatlashga yo‘naltirilgan tizimli amaliy ishlar ham yangi bosqichga ko‘tarildi.

“Biz O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta’minalashni ustuvor vazifa etib belgiladik. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo‘lishi barchamizga ayon” ([1]), degan edi davlatimiz rahbari SH.Mirziyoyev 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida.

Keyingi yillarda yurtimizda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida inklyuziv ta’limga faol o‘tish jarayonlari boshlandi. Bu esa O‘zbekiston jamiyatining barcha yuqori rivojlangan davlatlar kabi inklyuziv jamiyat sari yo‘l tutganligidan dalolat beradi. Inklyuziv ta’lim esa - inklyuziv jamiyatni faol va samarali barpo etishning asosiy shartlari va omillaridan biridir. YA’ni “inklyuziya - bu jarayon. Inklyuziv ta’lim - bu ijtimoiy inklyuziya maqsadiga erishishga hissa qo‘sadigan jarayon”dir ([2]).

Mamlakatimizda bugungi kunda inklyuziv ta’limni joriy etishga faol kirishilar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktabrdagi PQ-4860-son qarori bilan tasdiqlangan “2020-2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiysi”da pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligi hamda kasbiy malaka darajasi inklyuziv ta’lim uchun yetarli emasligi natijasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishda qator muammolar yuzaga” kelayotganligi asosiy muammolardan biri ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan edi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari maxsus ta’lim yo‘nalishlari talabalari jumladan, oligofrenopedagoglarni tayyorlash jarayonida ularda kelgusidagi faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan inklyuziv ta’lim jarayoni uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarini shakllantirishda qator muammolar mavjudligi aniqlandi.

O‘qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasi inklyuziv ta’lim sohasida kasbiy va pedagogik funksiyalarini amalga oshirish, o‘quvchilarning turli xil ta’lim ehtiyojlarini baholash va nogiron bolalarni ta’lim jarayoniga qo‘sishni kafolatlash, ularning rivojlanishi uchun qulay muhitni tashkil etish qobiliyati sifatida belgilanadi. Shuningdek, pedagogning o‘zining funksional majburiyatlarini (pedagogik va kasbiy) samarali bajarish qobiliyati sifatida, inklyuziv amaliyotni amalga oshiradigan o‘qituvchining maksimal samaradorligini ta’minlaydigan integrativ-shaxsiy ta’lim sifatida talqin qilinadi ([3]).

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bo'lajak oligofrenopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini shakllantirish uchun mazkur kompetensiyani shakllantirish modelini amalga oshirish bosqichlarining uzluksizligini ta'minlash, shakllangan asosiy kompetensiyalarni o'quvchilarning amaliy faoliyatida rivojlantirish va qo'llash katta ahamiyatga egadir.

Shu boisdan ham biz, bo'lajak defektologlarda inklyuziv kompetensiyalarni shakllantirishda oliy ta'lim muassasalarining boshqa ijtimoiy institutlar bilan o'zaro hamkorligini muhim deb bilamiz hamda quyidagi takliflarni berib o'tmoqchimiz:

1. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining defektologiya yo'nalishlari talabalari uchun alohida "Inklyuziv ta'limda hamkorlik" o'quv dasturini kiritish, shuningdek, bo'lajak faoliyatga kompetensiyaviy tayyorlashda institusional hamkorlik modelini ishlab chiqish;

2. Inklyuziv ta'lim pedagoglari uchun ta'lim tashkilotlari yo'nalishlaridan kelib chiqib "Inklyuziv ta'lim pedagogogi" ruknida o'quv-metodik qo'llanmalarini tayyorlash;

4. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari va inklyuziv ta'lim joriy etilgan umumta'lim maktablari o'rtasida oligofrenopedagogika yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotini tashkil etish, shuningdek, ta'limdan keyingi bandligini ta'minlash bo'yicha hamkorlik shartnomalarini tuzish.

5. Haftaning har shanba kunini inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalarda oliy ta'lim muassasalari pedagoglari va talabalari ishtirokida ilmiy va metodik kun sifatida belgilash;

Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda **nogironligi bo'lgan insonlar – jamiyatning to'laqonli a'zolari, degan tamoyilga** amal qilgan holda izchil ish olib borilayotganligi milliy rivojlanish strategiyalari va dasturlarining BMT "Ming yillik rivojlanish maqsadlari"ga mos kelishi, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlariga oid xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan tamoyillar va meyorlarni izchil amalga oshirib kelayotganligi yurtimizda ham kelgusida inklyuziv jamiyat barpo etilishi yo'lidan borilayotganligining yaqqol ifodasıdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
2. ЮНЕСКО. Резюме всемирного доклада по мониторингу образования 2020. Инклюзивное образование: для всех означает для всех. https://www.gcedclearinghouse.org/sites/default/files/resources/200213rus_0.pdf С.13.
3. Юрченко Ю.В. Инклюзивная компетентность субъектов образовательного процесса: к вопросу о понятии и структуре. Казанский педагогический журнал №3, 2020 стр. 207-214.